https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogik universiteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Nurmatova Iroda Iskandar qizi
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
Maktabgacha talim yo`nalishi
3-bosqich talabasi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi raqamli platformalar, monitoring tizimlari, ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari hamda ularga tayangan holda olib boriladigan pedagogik ishlar yoritilgan.

**Kalit so`z:** maktabgacha ta`lim, zamonaviy texnologiyalar, o'yin, integratsiya, raqobatbardosh, individual, sun'iy intellect.

MANAGEMENT OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION USING DIGITAL TECHNOLOGIES

Abrorkhonova Kamolakhon Abrorkhon qizi
Uzbek National Pedagogical University named after Nizami
Head of the Department of Primary Education Pedagogy,
PhD, Associate Professor
Nurmatova Iroda Iskandar qizi
Tashkent University of Social Innovation
Preschool Education
3rd year student

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Annotation: This article analyzes the theoretical foundations and practical directions of using digital technologies in managing the preschool education system. Digital platforms, monitoring systems, data processing tools that serve the effective management of preschool educational institutions, as well as pedagogical work carried out based on them, are highlighted.

Keywords: preschool education, modern technologies, game, integration, competitive, individual, artificial intelligence.

УПРАВЛЕНИЕ ДОШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ УЧРЕЖДЕНИЕМ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аброрхонова Камолахон Аброрхон кизи

Узбекский национальный педагогический университет имени Низами

Заведующий кафедрой педагогики начального образования, кандидат педагогических наук, доцент

Нурматова Ирода Искандар кизи

Ташкентский университет социальных инноваций

Дошкольное образование

Студентка 3 курса

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы и практические направления использования цифровых технологий в управлении системой дошкольного образования. Освещены цифровые платформы, системы мониторинга, инструменты обработки данных, обеспечивающие эффективное управление дошкольными образовательными учреждениями, а также педагогическая работа, осуществляемая на их основе.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Ключевые слова: дошкольное образование, современные технологии, игра, интеграция, соревновательный, индивидуальный, искусственный интеллект.

KIRISH. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi barcha uchun ochiq bo‘lgan mahalliy dasturiy mahsulotlar va IT-xizmatlar elektron platformasini yaratish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin: mahalliy IT-kompaniyalar va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar hamda ularning mahsulotlari va xizmatlarining yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, ularga o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surishda ko‘maklashish; davlat organlari va tashkilotlarida axborot tizimlari va boshqa dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha rejalashtirilayotgan loyihalar to‘g‘risida ma’lumotlarni e’lon qilish; mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning amaliy masalalarini hal qilish hamda axborot texnologiyalari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish jarayonida samarali va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish.[1]

XXI asr elektron ta'lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar qatoriga ta'limga oid muammolarni hal qilish, ta'lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish vositalarini ko'paytirish kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta'limdagi o'rni va rolini anglash zarurati maktabgacha va boshlang’ich ta'lim metodikasi va didaktikasi sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlarda o'z aksini topishi kerak. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim integratsiyasida raqamli texnologiylarni qo’llash muammolari kelgusida rivojlanish strategiyasini va unga yo'naltirilgan yo'nalishni tanlash bilan bog'liq [2]izlanishlarga sabab bo’ladi. Kelajakda raqobatdosh ta'lim va tadqiqot modeliga

[1] [1] “RAQAMLI O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

o'tish uchun raqamli transformatsiya dasturi allaqachon ishlab chiqilishi kerakligi zarur

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarining aksariyat qismida ta'limni raqamlashtirish jarayoning dastlabki shakli amalga oshirilmoqda. Bu o'quvchilarning o'quv materiallariga kirishini engillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan o'quv yuklamasini kamaytirish, o'quv intizomi va o'quv jarayoni maz[3]muni ustidan nazoratni osonlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu jarayon masofadan boshqarish imkonni bermoqda. Raqamli texnologiyalarning qo‘llanishi bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy raqamli resurslar orqali ta’lim jarayonini interfaol shakllarda tashkil etish, o‘yin va kreativ faoliyatni diversifikatsiya qilish, shuningdek, pedagogik-psixologik yondashuvlarni takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri, ijodkorligi,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

kommunikativ ko‘nikmalari va intellektual salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladi.Mazkur tadqiqotda raqamli texnologiyalardan foydalanib maktabgacha ta’lim muassasasini boshqarishning metodik asoslari, ularning pedagogik-psixologik va axloqiy jihatlari, shuningdek, bolalar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillari ilmiy tahlil qilinadi.Ta'lim muhitini raqamlashtirish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni qo‘llab-quvvatlovchi interaktiv elektron muhitni shakllantirish zarur. Bu elektron muhit tarbiyachilar uchun ijtimoiy guruhlar yaratish, veb-seminarlar va munozarali forumlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, yangi turdagi o‘quv vositalarini yaratish muhimdir: elektron darsliklar, muammoli vazifalar to‘plami va ularning diagramma yoki rasmlar bilan boyitilgan kitoblari, video o‘yinlar, elektron topshiriqlar bazasi va ta’limiy kompyuter o‘yinlari.Elektron muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’limning tubdan yangi shakllarini joriy etish lozim. Bu ma’lumot uzatish diapazonini kengaytirish, rolli o‘yinlar jarayonida turli vaziyatlarni modellashtirish va raqobatbardosh o‘yin mexanizmlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘quv jarayoniga joriy etish asosiy istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Mazkur tadqiqotda bolalarga mos sun’iy intellekt asosida yaratilgan o‘yinlarning pedagogik samaradorligini aniqlash, ularning rivojlanish jarayoniga ta’sirini baholash va texnologiyaning o‘quv-tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Pedagogik kuzatish metodi

Men Toshkent viloyati Piskent tumani 11-Sonli DMMTda pedagogik amaliyotim davomida bolalarda tajriba va sinov o`yin metodini o`tkazdim. Tadqiqotimning dastlabki bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg‘ulotlardagi faol ishtiroki, muammoli vaziyatlarga munosabati, konstruktorlik va tajriba o‘tkazish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

jarayonidagi xulq-atvori tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatuvlar 4 oy davomida olib borildi va 95 nafar bolaning ishtiroki qayd etildi. Ushbu metod bolalarda sun`iy intellectdan foydalanib mashg`ulotlarni tashkil etish. Faoliyatining tabiiy pedagogik jarayondagi o‘rnini baholashga imkon berdi.Bolalarda bu metodni o`yin orqali o`tkazdim.

O‘yin nomi: “Aqlli Do‘st bilan Ranglar Olami”

1. O‘yin maqsadi: bolalarda ranglarni tanish, farqlash va nomlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.Sun’iy intellekt yordamida interfaol muloqot orqali nutq, e’tibor, fikrlash va emotsional barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash.O‘yin jarayonini tabiiy va qiziqarli shaklda tashkil etib, bolani ortiqcha axborot yuklamasidan asrash.

O‘yin vazifalari : bolaga ranglarni sodda va tushunarli tarzda ko‘rsatish (qizil, ko‘k, sariq, yashil).SI yordamida ranglarni tanlash bo‘yicha oddiy topshiriqlar [4]berish.Bolaning javobini tinglab, ijobiy fikr bildiradigan emotsional xavfsiz muhit yaratish.Bolaning noto‘g‘ri javoblarini tanqid qilmasdan, yumshoq ko‘rsatmalar orqali to‘g‘ri yo‘lga yetaklash. O‘yin orqali ijodkorlik va qiziqishni oshirish (rangli predmetlar ko‘rsatish, kichik ssenariylar yaratish).

O‘yin borish tartibi:

Bosqich 1: Kirish qismi – “Aqlli Do‘st bilan tanishuv”

SI quvnoq ovozda o‘zini tanishtiradi:
“Salom! Men Aqlli Do‘stman. Bugun birgalikda ranglarni o‘rganamiz. Tayyor bo‘lsang, menga qo‘l siltab ko‘rsat!”Bola harakati tan olinadi va AI ijobiy javob beradi.“Yaxshi! Juda zo‘r boshladik!”

3. Vygotskiy L.S. *Psixologik rivojlanish nazariyasi*. – Moskva: Pedagogika, 1984. – 87–92-b.

4. Polat E.S. *Masofaviy ta’limning nazariy asoslari*. – Moskva, 2004. – 56–60-b.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Bosqich 2: Asosiy o‘yin – “Rangni top!”

SI ekranda bir rangni ko‘rsatadi.
“Mana bu qaysi rang?” Bola rang nomini aytadi yoki unga o‘xshash narsani ko‘rsatadi.AI bolaning javobini yumshoq tarzda baholaydi:

To‘g‘ri bo‘lsa: “Ajoyib! Bu — qizil rang! Sen juda aqllisan.”

Noto‘g‘ri bo‘lsa: “Hali biroz adashding shekilli. Keling, birga ko‘rib chiqamiz. Bu — qizil rang. Endi sen ham aytib ko‘r!”Topshiriq bolaga mos ravishda asta-sekin murakkablashadi (ikkita rang, uchta rang).

Bosqich 3: O‘yinli mashg‘ulot – “Rangli topishmoqlar”

SI sodda tarzdagi topishmoq beradi:
“Osmonda ko‘ramiz, suvday tiniq... bu qaysi rang?” Bola javob beradi, SI esa rag‘batlantiradi va tabassumli animatsiya ko‘rsatadi.

Bosqich 4: Yakun – “Ranglar bayrami”

SI barcha o‘rgatilgan ranglar ishtirokida kichik animatsion “bayram” sahnasini yaratadi.SI bolaning ismini aytib (agar ruxsat va xavfsiz bo‘lsa), shunday deydi: “Bugun juda katta ish qilding! Sen ranglar bo‘yicha haqiqiy ustabsan!”O‘yin yakunida bola emotsional jihatdan ijobiy kayfiyatda qoladi.

Tadqiqot davomida bolalarga mos sun’iy intellektdan foydalangan holda tashkil etilgan o‘yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’siri, pedagogik jarayon samaradorligi va o‘yinlar mazmunining yosh xususiyatlariga mosligi bo‘yicha bir qator muhim natijalar aniqlandi.

Diagnostik (boshlang‘ich) bosqich- bolalarda bu bosqichda mantiqiy fikrlash, muammo yechish, ijodiy va jamoaviy ko‘nikmalari dastlabki holati aniqlandi[1]. Shu

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

ma'lumotlar asosida mashg`ulot jarayonini individual va guruh bo'yicha rejalashtirish imkoniyati yaratildi**.**

Tajriba-sinov (intervensiya) bosqichi amaliyotim davomida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosidagi interaktiv o'yinlar,konstruktorlik faoliyati, tajribalar, modellashtirish va integratsiyalashgan o'yinlar tatbiq etildi. Bu jarayon bolalarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, e'tibor va xotira jarayonlarini kuchaytirish, shuningdek jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshirishga xizmat qildi.

Nazorat (yakuniy) bosqichi - bu bosqich yakunida tajriba guruhi natijalari va an'anaviy o'quv jarayonidagi guruhlar ko'rsatkichlari solishtirildi**.** Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosidagi o'yinlar bolalarning mantiqiy fikrlash, muammo yechish va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega.

Pedagogik moslikning ta'minlanishi – ushbu sun'iy intellekt asosidagi o'yinlar bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga o'tuvchi tarzda bolalarning o'zlashtirish jarayonini yengillashtirdi[1]. Natijada bolalarda ranglar, shakllar, tovushlar va sonlarni tanish ko'nikmalari tezroq shakllandi, topshiriqlarni o'z vaqtida tushunish va mustaqil bajarish qobiliyati oshdi. Shu bilan birga, o'yin jarayonida fikrlash, solishtirish va eslab qolish kabi kognitiv funksiyalar faollashgani kuzatildi[2].

Psixologik xavfsizlikning ta'minlanishi - o'yin jarayonida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan yumshoq va ijobiy ohangdagi muloqot bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalarda qo'rquv, asabiylashish yoki stress holatlari kuzatilmadi. Noto'g'ri javoblardan so'ng sun'iy intellekt tomonidan berilgan qo'llab-quvvatlovchi javoblar bolalarda ishonch hissini oshirdi. Shu bilan birga, o'yin jarayonida motivatsiya va qiziqish darajasi barqaror saqlandi[4].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Nutq va ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishning kuchayishi - o`yin davomida interfaol muloqot bolalarning so‘z boyligi va nutq faoliyatini rag‘batlantirdi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi. Bolalarda rang, shakl, predmet va harakatlarni nomlash tezligi oshdi. So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalari rivojlandi. O`yin jarayonida berilgan savollarga to‘liq gaplar bilan javob berish odati shakllandi.

E’tibor va xotira jarayonlarining kuchayishi - sun’iy intellekt asosidagi o‘yinlarda beriladigan qisqa topshiriqlar va interfaol animatsiyalar bolalarning e’tiborini jamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi[1]. Shu bilan birga, e’tibor davomiyligi oshdi, ranglar, shakllar va predmetlarni eslab qolish ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Vizual va eshituv orqali qabul qilinadigan ma’lumotlarni qayta ishlash faollashdi.

O‘yin orqali o‘rgatish samaradorligi - mashg`ulotda sun’iy intellekt asosidagi o‘yinlarning o‘quv-axborot funksiyasi an’anaviy o‘yinlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani aniqlandi[3]. Bolalarning o‘yinga jalb etilish ko‘rsatkichi 30–40 % ga oshdi. Murakkab topshiriqlarni bajarish jarayoni sun’iy intellekt ko‘magida osonlashdi. Shuningdek, o‘yin bolalarda ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Tarbiyachilar uchun qulayliklar- tarbiyachilar tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida quyidagi amaliy natijalar qayd etildi. O‘yinlar mashg‘ulotni tashkil etishni yengillashtirdi. Bolalar faoliyatini individual kuzatish SI algoritmlari yordamida osonlashdi. Vaqt tejandi va nazorat samaradorligi oshdi.Bolalarga mos sun’iy intellektdan foydalanilgan didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, emotsional va kommunikativ rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘yin jarayonining xavfsiz, interfaol va yoshga mos tashkil etilishi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

pedagogik jarayonni samaraliroq qildi va o‘yin orqali o‘qitishning zamonaviy, samarali shakli sifatida o‘zini oqladi.[5]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarga mos sun’iy intellekt (SI) asosidagi o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida ijobiy rol o‘ynaydi. Pedagogik moslik va psixologik xavfsizlik tamoyillariga asoslangan o‘yinlar bolalar uchun ortiqcha axborot yuklamasini bartaraf etadi, ularni qiziqtiradi va o‘rganishga rag‘batlantiradi. SI yordamida tashkil etilgan o‘yinlarning interfaolligi, adaptiv xususiyati va ijobiy muloqot mexanizmlari bolalarning nutq, e’tibor va xotira jarayonlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, tajriba va kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, SI asosidagi o‘yinlar an’anaviy o‘yinlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega: bolalar topshiriqlarni tezroq va mustaqil bajaradi, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi va emotsional holat barqaror bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘yin jarayonida pedagogning roli saqlanib qoladi. SI bolalarni o‘rgatishda yordamchi vosita sifatida ishlatiladi, lekin pedagog kuzatuv, yo‘naltirish va motivatsiya berish vazifalarini bajarishda davom etadi. Shu bilan birga, bolalarga mos SI tizimlarini yaratishda yosh xususiyatlari, xavfsizlik va axloqiy me’yorlarga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Muhokama va xulosa: 4 oylik amaliyotim davomida natijalarim shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning kognitiv, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini tezlashtiradi**.** Diagnostik bosqichda bolalarning mantiqiy fikrlash, muammo yechish, ijodiy va jamoaviy ko‘nikmalari dastlabki holati aniqlangan bo‘lsa, tajriba-sinov bosqichida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosidagi interaktiv o‘yinlar, STEAM loyihalari,

[5] Gee, J.P. *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. – 45–50-b.

6.Anderson, J.R. *Cognitive Psychology and Its Implications*. – New York: Freeman, 2015. – 210–215-b.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

konstruktorlik faoliyati va modellashtirish tatbiq etildi. Bu jarayon bolalarning e'tiborini jamlash, vizual va eshituv orqali axborotni qayta ishlash, ranglar, shakllar va sonlarni tanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.Nazorat bosqichida esa tajriba guruhi natijalari an'anaviy o'quv jarayonidagi guruhlar bilan solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt asosidagi o'yinlar bolalarning topshiriqlarni mustaqil va to'g'ri bajarish qobiliyatini oshirdi, murakkab vazifalarni bajarish jarayoni osonlashdi va kognitiv funksiyalar (fikrlash, solishtirish, eslab qolish) faolroq namoyon bo'ldi**.,** psixologik xavfsizlik ta'minlandi**:** o'yin jarayonida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan yumshoq va ijobiy ohangdagi muloqot bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, qo'rquv yoki stress holatlari kuzatilmadi va noto'g'ri javoblardan so'ng qo'llab-quvvatlovchi javoblar bolalarda ishonch hissini oshirdiX. Shu bilan birga, motivatsiya va qiziqish darajasi barqaror saqlandi.Bolalarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektli o'yinlar maktabgacha ta'lim jarayonini zamonaviy, interfaol va samarali vosita sifatida rivojlantirish imkonini beradi, bolalarning rivojlanish salohiyatini oshiradi va pedagogik jarayonni qo'llab-quvvatlaydi[6]. Shu bilan birga, bunday vositalardan foydalanishda yoshga moslik va pedagogik nazorat muhim ahamiyatga ega. Bu esa globallashayotgan axborot makonida maktabgacha ta'limni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilishning sifat jihatdan yangi modelini yaratishga imkon beradi, bolalarning individual o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi va ilg'or metodik yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi**.** **–** Toshkent, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.
Maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar**.** – Toshkent.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

3.Vygotskiy L.S. "Psixologik rivojlanish nazariyasi". — Moskva, 1984.

4. Hasanboeva M. “Pedagogika asoslari”, Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.

5.Qurbonov B. “Raqamli ta’lim muhitini shakllantirish”, Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

6.G‘ulomov N. “Maktabgacha ta’lim metodikasi”, Samarqand, 2022.

7. Nurullayeva D. "AKT vositalaridan samarali foydalanish metodikasi", Toshkent, 2021.

8. Bakhodirova, M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish”. Toshkent: Pedagogika, 2022.

9. Xolmatova D.Sh. “Maktabgacha ta’lim muassasalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar “ Ilmiy-amaliy jurnal, 2022.

10. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

11.Sayidahmedov N.S.
Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

12. Polat E.S**.** Novые pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya**. –** Moskva: Akademiya, 2017.

13. Ta’limni raqamlashtirishning pedagogik asoslari. – Moskva: Yurayt, 2020.

14 UNESCO. ICT in Early Childhood Education: Policy, Practice and Research. – Paris, 2019.

15. OECD. Digital Transformation in Education. – Paris, 2021.